



KOREYS VA O'ZBEK TILLARIDA KO'P MA'NOLILIKNING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSIYATLARI: QIYOSIY TAHLIL

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20127896>

Mamirjonova Mohchehrabonu Ulug'bek qizi

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Koreys filologiyasi kafedrasi o'qituvchisi

Annotatsiya: *Mazkur maqolada koreys va o'zbek tillarida ko'p ma'nolilik hodisasining leksik-semantik xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Ko'p ma'nolilik bir leksemaning o'zaro semantik jihatdan bog'liq bo'lgan ikki yoki undan ortiq ma'nolarni ifodalashi natijasida yuzaga keladigan muhim til hodisasi hisoblanadi. Maqolada koreys tilidagi 다의어 tushunchasi, ko'p ma'noli so'zlarning bosh va hosila ma'nolari, semantik ko'chish mexanizmlari hamda ularning koreys tilini xorijiy til sifatida o'qitishdagi ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, o'zbek tilshunosligida ko'p ma'noli so'zlarning qadimiy lug'atchilik an'alaridan boshlab zamonaviy semasiologik tadqiqotlarga bo'lgan rivojlanish jarayoni ko'rib chiqiladi. Qiyosiy tahlil natijasida har ikki tilda ko'p ma'nolilik tilning leksik boyligini oshiruvchi, milliy tafakkur va madaniy tajribani aks ettiruvchi murakkab semantik hodisa ekanligi aniqlanadi.*

Kalit so'zlar: *koreys tili, o'zbek tili, ko'p ma'nolilik, 다의어, leksik semantika, bosh ma'no, hosila ma'no, semantik ko'chish, metafora, metonimiya, qiyosiy tilshunoslik.*

LEXICAL-SEMANTIC FEATURES OF POLYSEMY IN KOREAN AND UZBEK: A COMPARATIVE ANALYSIS

Mokhchehrabonu Mamirjonova

Teacher, Department of Korean Philology

Uzbekistan State World Languages University

Abstract: *This article provides a comparative analysis of the lexical-semantic features of polysemy in Korean and Uzbek. Polysemy is considered an important linguistic phenomenon that occurs when one lexical unit expresses two or more semantically related meanings. The article discusses the concept of 다의어 in Korean, its primary and derived meanings, mechanisms of semantic transfer, and its importance in teaching Korean as a foreign language. In addition, the development of polysemy in Uzbek linguistics is examined from ancient lexicographic traditions to modern semasiological studies. The comparative analysis shows that polysemy in both languages is a complex semantic*



phenomenon that enriches the vocabulary of the language and reflects national thinking, cultural experience, and communicative needs.

Keywords: *Korean language, Uzbek language, polysemy, 다의어, lexical semantics, primary meaning, derived meaning, semantic transfer, metaphor, metonymy, comparative linguistics.*

KIRISH

Tilning leksik-semantik tizimida soʻz maʼnosining taraqqiyoti muhim ilmiy masalalardan biri hisoblanadi. Har qanday tilning lugʻat boyligi faqat yangi soʻzlarning paydo boʻlishi hisobiga emas, balki mavjud leksemalarning semantik jihatdan kengayishi, yangi nutqiy vaziyatlarga moslashuvi va turli maʼno vazifalarini bajarishi orqali ham rivojlanadi. Shu nuqtai nazardan qaralganda, koʻp maʼnolilik hodisasi tilning ichki taraqqiyoti, tafakkur jarayoni hamda xalqning borliqni idrok etish xususiyatlarini ochib beruvchi muhim manba sanaladi.

Koʻp maʼnolilik bir leksemaning oʻzaro semantik jihatdan bogʻliq boʻlgan ikki yoki undan ortiq maʼnolarda qoʻllanishidir. Bunday maʼnolar tasodifiy emas, balki umumiy semantik yadro, mazmuniy yaqinlik va tarixiy taraqqiyot jarayonidagi ichki bogʻliqlik asosida yuzaga keladi. Demak, bir leksemaning turli maʼnolari oʻrtasida muayyan umumiylik saqlanib qoladi va aynan shu umumiylik ularni bitta soʻz doirasida birlashtirib turadi.

Koʻp maʼnolilik hodisasini omonimiya bilan adashtirmaslik lozim. Omonimiyada shakliy oʻxshashlik mavjud boʻlsa-da, maʼnolar oʻrtasida ichki semantik aloqa boʻlmaydi. Koʻp

maʼnolilikda esa bitta soʻzning turli maʼnolari oʻzaro bogʻliq boʻladi. Shu jihat uni leksik semantikaning alohida tadqiqot obyekti sifatida ajratib turadi.

Koreys va oʻzbek tillarida koʻp maʼnolilik hodisasini qiyosiy oʻrganish nazariy va amaliy jihatdan muhimdir. Koreys tilida bu hodisa 다의어 termini orqali ifodalanib, soʻzning bosh va hosila maʼnolari, kontekstual qoʻllanishi hamda til taʼlimidagi oʻrni bilan bogʻliq holda oʻrganiladi. Oʻzbek tilshunosligida esa koʻp maʼnolilik qadimiy lugʻatchilik anʼanalaridan boshlab zamonaviy semasiologik tadqiqotlargacha boʻlgan jarayonda rivojlanib kelgan. Shuning uchun mazkur ikki til materillari asosida koʻp maʼnolilikni qiyosiy tahlil qilish har ikki tilning semantik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi.

ASOSIY QISM

1. Koreys tilida koʻp maʼnolilik hodisasining umumiy xususiyatlari

Koreys tilida koʻp maʼnoli soʻzlar masalasi leksik semantikaning muhim va dolzarb tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Koreys tilshunosligida bitta leksemaning oʻzaro bogʻliq bir necha maʼnolarni ifodalashi 다의어, yaʼni koʻp maʼnoli soʻz termini orqali ifodalanadi. Mazkur terminning qoʻllanishi koreys tilida koʻp maʼnolilik hodisasi mustaqil



semantik kategoriya sifatida qaralishini ko'rsatadi.

Koreys tilidagi ko'p ma'noli so'zlarda, odatda, bosh ma'no va hosila ma'nolar farqlanadi. Bosh ma'no leksemaning dastlabki, markaziy va asosiy ma'nosi bo'lsa, hosila ma'nolar shu asosiy ma'no asosida shakllanadi. Bunday ma'nolar o'rtasida ma'lum semantik bog'liqlik mavjud bo'ladi. So'zning turli ma'nolari umumiy semantik yadro atrofida birlashadi. Shu sababli koreys tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'rganishda ma'nolar o'rtasidagi ichki aloqani aniqlash muhim ahamiyat kasb etadi.

Ko'p ma'nolilikning yuzaga kelishi, asosan, ma'no ko'chishi jarayonlari bilan bog'liq. Koreys tilida ham metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi semantik mexanizmlar yordamida bir leksemaning yangi ma'nolari shakllanadi. So'z dastlab ma'lum bir predmet, belgi yoki harakatni bildirsa, vaqt o'tishi bilan shu ma'no asosida yangi, ko'chma yoki hosila ma'nolar vujudga keladi. Natijada leksema nutqda ko'proq funksional yuklama bajaradigan, semantik jihatdan boyroq birlikka aylanadi.

Koreys tilidagi ko'p ma'noli so'zlar nutqiy iqtisod tamoyili bilan ham uzviy bog'liqdir. Til tizimi imkon qadar kam shakl vositasida ko'proq mazmun ifodalashga intiladi. Bitta leksemaning turli, ammo o'zaro bog'liq ma'nolarda qo'llanishi kommunikativ jarayonda qulaylik yaratadi. Bu holat, bir tomondan, tilning lug'aviy tarkibini ixcham saqlasa,

ikkinchi tomondan, uning mazmuniy sig'imini oshiradi.

Shuningdek, koreys tilidagi ko'p ma'noli so'zlar lingvomadaniy va kognitiv jihatdan ham alohida ahamiyatga ega. Ayrim leksemalarning yangi ma'nolari koreys xalqining tarixiy tajribasi, turmush tarzi, ijtimoiy munosabatlari, milliy dunyoqarashi va obrazli tafakkuri bilan bog'liq holda shakllanadi. Shu bois ko'p ma'nolilik faqat so'zning lug'aviy imkoniyatini emas, balki til egalarining borliqni qanday tasniflashini va anglashini ham aks ettiradi.

2. Koreys tilida ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishning ilmiy-amaliy ahamiyati

Koreys tilini xorijiy til sifatida o'qitishda ko'p ma'noli so'zlar alohida metodik ahamiyatga ega. Chunki xorijiy o'rganuvchilar uchun bitta shaklning bir nechta bog'liq ma'nolarda ishlatilishini anglash oson emas. Bu jarayonda o'quvchi nafaqat so'zning lug'aviy ma'nosini, balki uning kontekstdagi ma'no qirrasini ham tushunishi zarur.

Leksik ta'lim nuqtai nazaridan qaralganda, koreys tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'rgatishda ularning bosh ma'nosi va hosila ma'nolarini izchil ko'rsatish, ma'nolar o'rtasidagi ichki semantik bog'liqlikni tushuntirish va turli nutqiy vaziyatlarda qaysi ma'no faollashishini misollar orqali ochib berish zarur. Chunki ko'p ma'noli so'zlarning faqat lug'aviy izohini berish yetarli emas; ularning real nutqdagi qo'llanish xususiyatlarini ham ko'rsatish lozim.



Koreys tilshunosligida leksik ma'noni aniq anglash va uni o'qitish masalalariga bag'ishlangan tadqiqotlarda bu jihat alohida ta'kidlanadi. Xususan, Kim Gvanghe so'z ma'nosini puxta anglash faqat uning lug'aviy izohini bilish bilan cheklanmasligini, balki uni boshqa semantik birliklar bilan qiyoslash orqali yanada chuqurroq tushunish mumkinligini qayd etadi. Bu yondashuv ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishda ham muhim metodik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kim Hongbom esa semantik jihatdan yaqin yoki o'zaro bog'liq ma'nolarni farqlashga oid metodologiyaning yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi o'quv jarayonida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirishini ta'kidlaydi. Bu holat ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish masalasiga bevosita daxldor, chunki bunday birliklarning bosh va hosila ma'nolarini farqlash aniqlik va tizimlilikni talab etadi.

Mun Geumhyeon koreys tili ta'limi jarayonida leksik birliklarning ma'no farqlarini ochib berish, ularni tizimlashtirish va samarali o'qitish zarurligini alohida qayd etadi. Uning fikricha, koreys tili darsliklarida semantik birliklarga oid ma'lumotlar ko'pincha yetarli darajada mukammal berilmaydi. Amaliyotda esa ularni tushuntirish ko'p hollarda o'qituvchining individual tajribasiga bog'liq bo'lib qoladi. Shu nuqtai nazardan, ko'p ma'noli so'zlarni o'qitishda ularning semantik tarkibi, qo'llanish doirasi va kontekstual xususiyatlarini izchil tushuntirib beruvchi ilmiy-metodik asoslarni yaratish zarur.

Park Jenam esa leksik birliklarning noto'g'ri qo'llanish holatlarini tahlil qilar ekan, til o'rganuvchilar uchun faqat ko'p miqdordagi so'zlarni bilish emas, balki ularni semantik nozikliklari bilan anglash muhimligini ko'rsatadi. Til o'rganishning yuqori bosqichlarida o'quvchilarning lug'at boyligi ortib boradi, biroq bunda miqdoriy o'sish bilan bir qatorda sifat jihati, ya'ni so'zlarning ma'no qatlamlarini chuqur tushunish ham ta'minlanishi lozim.

Shunday qilib, koreys tilidagi ko'p ma'noli so'zlarni o'qitish o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirish, kontekstni to'g'ri anglash, nutqiy vaziyatga mos ma'noni tanlash va semantik sezgirlikni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

3. O'zbek tilshunosligida ko'p ma'nolilik hodisasining o'rganilishi

O'zbek tilshunosligida ko'p ma'noli so'zlar masalasiga bo'lgan qiziqish qadimiy yozma manbalardan boshlanadi. Dastlab bu hodisa maxsus nazariy kategoriya sifatida emas, balki lug'atchilik, matn sharhi va so'z ma'nolarini izohlash jarayonida amaliy hodisa sifatida kuzatilgan. Keyinchalik esa ko'p ma'noli so'zlar tilning leksik boyligi, semantik taraqqiyoti va nutqiy imkoniyatlarini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida nazariy jihatdan chuqurroq tadqiq etila boshlandi.

Turkiy tillarning eng qadimiy leksik manbalaridan biri bo'lgan Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida ayrim so'zlarning bir necha ma'noda qo'llanishi qayd etilgan. Garchi



muallif bu ma'nolarni hozirgi semasiologiyadagi kabi yagona semantik tizim doirasida tahlil qilmagan bo'lsa-da, bir leksemaning turli ma'nolarini alohida ko'rsatib berishi o'sha davridayoq turkiy tillarda ko'p ma'noli so'zlar mavjud bo'lganini ko'rsatadi.

Zamaxshariyning "Muqaddimat ul-adab" asarida ham so'zlarning turli vaziyatlarda turlicha ma'noda qo'llanishiga e'tibor qaratilgan. Bu holat o'rta asr sharq lug'atchiligida so'z ma'nolarining farqlanishi va kontekstga bog'liq holda o'zgarishi masalasi amaliy jihatdan anglanganini ko'rsatadi. Mazkur yondashuvni ko'p ma'noli so'zlarni tavsiflashning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida baholash mumkin.

Alisher Navoiy ijodida ham ko'p ma'noli so'zlarning semantik va badiiy imkoniyatlari yorqin namoyon bo'ladi. U "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida turkiy tilning leksik boyligini asoslar ekan, ayrim so'zlarning bir necha ma'noda qo'llanishini tilning qudrati va ifoda imkoniyati bilan bog'laydi. Navoiy nazarida so'zning ko'p ma'noliligi uning obrazlilik salohiyatini oshiruvchi muhim vositalardan biridir. Bu qarash o'zbek adabiy tafakkurida ko'p ma'noli so'zlarga nafaqat lug'aviy, balki estetik hodisa sifatida ham yondashilganini ko'rsatadi.

O'zbek xalq og'zaki ijodida ham ko'p ma'noli so'zlar faol qo'llanilgan. Maqollar, matallar, dostonlar va latifalarda bir leksemaning turli semantik qirralaridan foydalanish orqali obrazlilik, kinoya, tagma'no va ta'sirchanlik yuzaga keltiriladi. Shu jihatdan ko'p ma'noli

so'zlar xalq tafakkuri, milliy dunyoqarash va obrazli fikrlash bilan uzviy bog'liq hodisa sifatida namoyon bo'ladi.

Zamonaviy o'zbek tilshunosligida ko'p ma'noli so'zlar masalasi, ayniqsa, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab izchil o'rganila boshlandi. Bu davrda tilshunos olimlar mazkur hodisani semasiologik, strukturaviy, funksional va stilistik nuqtai nazardan tahlil qildilar. Natijada ko'p ma'noli so'zlarning yuzaga kelish omillari, semantik tuzilishi, bosh va hosila ma'nolari, shuningdek, omonimiya, metafora, metonimiya hamda frazeologik ma'no ko'chishlari bilan aloqasi ilmiy asosda yoritildi.

Bu borada Miraziz Mirtojdiyevning ilmiy tadqiqotlari alohida o'rin tutadi. Olim ko'p ma'noli so'zlarni maxsus o'rganib, ularning yuzaga kelish sabablarini, semantik taraqqiyot mexanizmlarini hamda so'z ma'nolari o'rtasidagi ichki bog'liqlikni tahlil qiladi. Uning qarashlariga ko'ra, o'zbek tilidagi ko'p ma'noli so'zlar tasodifiy hodisa emas, balki til taraqqiyoti bilan uzviy bog'liq bo'lgan qonuniy semantik jarayon mahsulidir.

T. Aliqulovning izlanishlari ham ko'p ma'noli so'zlarning shakllanish mexanizmlarini anglashda muhim ahamiyat kasb etadi. Olim, asosan, ot turkumiga oid birliklar misolida semantik kengayish hodisasini tahlil qilib, ko'chma ma'noning yuzaga kelish yo'llarini ko'rsatishga harakat qiladi. Bozorova va boshqa tadqiqotchilar ishlarida esa ko'p ma'noli so'zlar bilan semantik ko'chish turlari o'rtasidagi bog'liqlik yoritiladi.



Rang-tus bildiruvchi soʻzlarning semantik taraqqiyotini oʻrgangan M. Sodiqova bunday birliklarning koʻp maʼnoli boʻlishida xalqning dunyoqarashi, obrazli tafakkuri va milliy-madaniy tajribasi muhim rol oʻynashini taʼkidlaydi. G. Roziqova esa semantik maydon nazariyasi asosida koʻp maʼnoli soʻzlarni tizimlashtirishga intiladi. Bu yondashuv koʻp maʼnoli soʻzlarni alohida leksema doirasida emas, balki umumiy semantik tizim ichida oʻrganish imkonini beradi.

4. Koreys va oʻzbek tillarida koʻp maʼnolilikning qiyosiy tavsifi

Koreys va oʻzbek tillarida koʻp maʼnolilik hodisasi bir qator umumiy xususiyatlarga ega. Avvalo, har ikki tilda ham koʻp maʼnoli soʻzlar bir leksema doirasida oʻzaro bogʻliq maʼnolarni ifodalaydi. Bu maʼnolar umumiy semantik yadro asosida shakllanadi va kontekstga qarab turli qirralarda namoyon boʻladi.

Ikkinchidan, har ikki tilda koʻp maʼnolilikning yuzaga kelishida metafora, metonimiya, sinekdoxa kabi semantik koʻchish usullari muhim rol oʻynaydi. Bunday koʻchishlar orqali soʻzning dastlabki maʼnosi kengayadi, yangi nutqiy vazifalarni bajarishga moslashadi va tilning ifoda imkoniyatlarini boyitadi.

Uchinchidan, koreys va oʻzbek tillarida koʻp maʼnoli soʻzlar milliy-madaniy tafakkur bilan bogʻliq. Koreys tilidagi ayrim koʻp maʼnoli birliklar koreys xalqining tarixiy tajribasi va ijtimoiy hayoti bilan bogʻliq holda

shakllangan boʻlsa, oʻzbek tilidagi koʻp maʼnoli soʻzlar xalq ogʻzaki ijodi, mumtoz adabiyot, maqol va matallar, obrazli tafakkur bilan uzviy aloqada rivojlangan.

Shu bilan birga, ayrim farqli jihatlar ham mavjud. Koreys tilshunosligida koʻp maʼnolilik masalasi koʻproq til taʼlimi, semantik farqlash va xorijiy oʻrganuvchilarga leksik birliklarni oʻrgatish nuqtai nazaridan oʻrganilgan. Oʻzbek tilshunosligida esa bu hodisa tarixiy lugʻatchilik anʼanalari, semasiologik tadqiqotlar, badiiy matn va uslubiy imkoniyatlar bilan bogʻliq holda kengroq yoritilgan.

Demak, koreys va oʻzbek tillaridagi koʻp maʼnoli soʻzlarni qiyosiy oʻrganish har ikki tilning semantik imkoniyatlarini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Ayniqsa, koreys tilini oʻzbek auditoriyasida oʻqitish jarayonida bunday qiyosiy yondashuv samarali metodik natijalar berishi mumkin. Chunki oʻzbek tilida ham koʻp maʼnolilik hodisasi keng rivojlangan boʻlib, ona tili bilan qiyoslash orqali koreys tilidagi koʻp maʼnoli soʻzlarni tushuntirish oʻquvchilar uchun qulayroq boʻladi.

XULOSA

Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib aytish mumkinki, koʻp maʼnolilik koreys va oʻzbek tillarining leksik-semantik tizimida muhim oʻrin tutuvchi murakkab hodisadir. Har ikki tilda koʻp maʼnoli soʻzlar tilning ichki taraqqiyoti, nutqiy ehtiyojlar, semantik koʻchish jarayonlari va milliy tafakkur bilan bevosita bogʻliq holda shakllanadi.



Koreys tilida ko'p ma'nolilik **다의어** termini orqali ifodalanib, so'zning bosh va hosila ma'nolari, kontekstual qo'llanishi va leksik ta'limdagi o'rni bilan bog'liq holda o'rganiladi. O'zbek tilshunosligida esa ko'p ma'nolilik qadimiy lug'atchilik an'analardan boshlab zamonaviy semasiologik tadqiqotlarga bo'lgan jarayonda rivojlanib kelgan.

Qiyosiy tahlil shuni ko'rsatadiki, koreys va o'zbek tillarida ko'p ma'nolilik umumiy semantik qonuniyatlarga asoslangan bo'lsa-da, uning o'rganilish yo'nalishlari va ilmiy talqinida ayrim farqlar mavjud. Koreys tilida bu hodisa

ko'proq o'qitish metodikasi va semantik farqlash bilan bog'liq holda tahlil qilinsa, o'zbek tilida u tarixiy, semasiologik va badiiy-uslubiy jihatdan keng o'rganilgan.

Shunday qilib, koreys va o'zbek tillarida ko'p ma'noli so'zlarni qiyosiy tadqiq etish nafaqat nazariy tilshunoslik, balki amaliy til ta'limi uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, xorijiy til sifatida koreys tilini o'qitishda ko'p ma'noli so'zlarning bosh va hosila ma'nolarini, kontekstual xususiyatlarini va semantik qo'llanish chegaralarini tizimli tushuntirish o'quvchilarning leksik kompetensiyasini rivojlantirishga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Mirtojiev M. O'zbek tilida polisemiya. – Toshkent: Fan, 1984.
2. Mahmud Koshg'ariy. Devonu lug'otit turk. 3 jildlik. – Toshkent: Fan, 1960–1963.
3. Zamaxshariy M. Muqaddimat ul-adab. – Toshkent: Fan, 1971.
4. Navoiy A. Muhokamat ul-lug'atayn. – Toshkent: Fan, 1983.
5. Aliqulov T. O'zbek tilida so'z ma'nosining taraqqiyoti masalalari. – Toshkent: Fan, 1980.
6. Sodiqova M. Hozirgi o'zbek tilida rang-tus bildiruvchi sifatlar. – Toshkent: Fan, 1974.
7. Roziqova G. O'zbek tilida semantik maydon va leksik birliklar munosabati. – Toshkent, 2005.
8. 김광해. 국어 어휘론 개설. – 서울: 집문당, 1993.
9. 김홍범. 한국어 어휘 의미 변별 연구. – 서울, 2001.
10. 문금현. 한국어 어휘 교육을 위한 다의어 학습 방안 // 이중언어학. – 서울, 2006. – №30. – 149–184쪽.
11. 박재남. 한국어 학습자의 어휘 오류와 의미 사용 연구. – 서울, 2008.
12. 이영주. 한국어 어휘 교육과 의미 이해 연구. – 서울, 2010.